

ULUG'BEK HAMDAM ROMANLARI XUSUSIDA MULOHAZALAR

Abdurashidova Ma'mura**SamDU magistranti**<https://doi.org/10.5281/zenodo.15056722>

Annotatsiya. Ushbu maqola Ulug'bek Hamdamning romannavislik mahoratiga bag'ishlangan bo'lib, unda yozuvchi ijodiga umumiy nazar tashlanadi va muallif romanlari xususida ilmiy-nazariy fikrlar o'rganiladi. Shuningdek, Ulug'bek Hamdamning o'zbek romanchiligiga qo'shgan hissasi uning asarlari orqali ochib beriladi.

Kalit so'zlar: o'zbek adabiyoti, yozuvchi mahorati, romannavislik, roman, uslub.

O'zbek adabiyotida romannavislik an'alarining rivojlanishida Ulug'bek Hamdamning o'rni beqiyosdir. Uning romanlari zamonaviy o'zbek adabiyotining eng yorqin namunalari hisoblanadi. Ulug'bek Hamdam o'z ijodida milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va zamonaviy muammolarni yoritish orqali o'ziga xos uslub yaratgan. Uning asarlarida inson taqdiri, ma'naviy qiyinchiliklar va jamiyatdagi murakkabliklar badiiy yondashuv orqali aks ettirilgan.

Ulug'bek Hamdam "Yolg'izlik", "Uzoqdagi Dilmura" kabi qissa va hikoyalar to'plamlari, "Muvozanat", "Isyon va itoat", "Sabo va Samandar", "Yo'l", "Ota", "Yaxshiyam, sen bor", "To'rtko'cha" singari asarlari bilan keng kitobxonlar, adabiyotshunos olimlar e'tiborini jalb qilayotgan adibdir.

Yozuvchining romanchilikdagi ilk tajribasi – "Muvozanat" romanida milliy tarixning muayyan davri kesimida xalqimiz hayotida yuz bergan burilish pallalari, taqdir yo'li murakkab zamonda kechgan odamlar ruhiyatidagi evrilishlar mustaqillik davrining qaynoq kayfiyati bilan uyg'unlashib, epik ko'lamdorlik va badiiy-publitsistik yo'sinda epik tasvir etildi. Muallif nomi L.Bo'rixon, I.Sulton, A.Yo'ldosh singari o'z zamondoshlari bilan bir safda sanalib, ayrim nasriy asarlari, xususan, "Muvozanat"ning sahna varianti ham yuzaga keldi. Adib romanlari monografik tadqiqotlar doirasida ilmiy-nazariy tahlilga jalb etila boshladi.

Ulug'bek Hamdamning romanlari murakkab syujet va chuqur falsafiy qatlamlar bilan ajralib turadi. U o'z asarlarida inson ruhiyati, jamiyatdagi o'zgarishlar va tarixiy haqiqatlarni teran tahlil qiladi. Uning romanlari modernizm va postmodernizm unsurlarini o'z ichiga olgan bo'lib, o'zbek adabiyotiga yangi badiiy qirralarni olib kirgan. Yozuvchining romanlarida nafaqat badiiy uslub, balki psixologik tahlil va tafakkurning chuqur qirralari ham muhim o'rin egallaydi.

"Muvozanat" mohiyatiga ko'ra realistik roman. To'g'ri, unda modernizmga xos kayfiyat ham elas-elas seziladi. Chunki voqelikni badiiy idrok etish turli metodlarning qorishuvi tabiiy hol. Ammo "Muvozanat"ning o'zakmohiyatida rumiyona fikr mantiqiyliqi, qodiriyona romaniy tafakkur hissi, oybekona mushohada teranligi ko'zga tashlanadi. Ammo yozuvchi bularning barchasini xususiy-individual uslubga singdirib yuboradi.

Ulug'bek Hamdam ijodida hayot voqeligini inson ichki dunyosi bilin uyg'un ifodalashning metaforik usuli ilk qissasi "Yolg'izlik"dayoq ko'zga tashlangan edi. O'ttiz yoshli qirchillama o'zbek ziyolisi ramziga aylangan "Yolg'izlik" qissasi qahramoni ruhiy-ma'naviy, ijtimoiy-maishiy muammolar qarshisida yolg'iz va o'z yolg'izligiga chora izlayotgan odam obrazining metaforik umumlashmasi edi. Qissa qahramoni o'z botiniy muammosiga ichki "men"idan chora izlar ekan, olam va odam haqidagi ulkan falsafiy mavzularda mushohada yuritadi.

Ulug'bek Hamdam mana shunday tadrijiy ravishda epik ijodning yirik janri romanda olam va odamni imetaforik umumlashtirishdek o'ta murakkab jarayonni muvaffaqiyat bilan bosib o'tdi. Odamni borliqning bir butun kompleks metaforik tizimi markazida badiiy psixologik tasvirlash yo'lidagi ko'p yillik tajribalarini "Isyon va itoat" romanida yuqori darajaga ko'tardi. Adabiyotshunos I.Yoqubov e'tiroficha, "Roman olamning o'ziga xos siqiq manzarasini mujassamlashtira boshladi. Ko'p planli mazmun, sertarmoq syujet, kompozitsion rang-baranglik, jahon epik tajribasiga xos tasviriy vosita va usullarni qo'llash, shakliy ixchamlikka intilishni o'zlashtira bordi"¹.

Yozuvchining "Sabo va Samandar" romani yuzasidan turli munosabatlar bildirildi. Jumladan, Q.Husanboyeva romanni "buyuk ishq qissasi", tadqiqotchi N.Qilichev "liro-psixologik roman", Q.Yo'ldoshev "romanda milliy eposlardagiga o'xshab nasriy bayonning she'riy ifoda bilan uyg'unlashib kelishi milliy roman sintaksisiga kiritilgan jiddiy o'zgarish, asarga esselashgan tafakkur xos"², – deya ta'riflagan.

Adibning "Isyon va itoat" romani muayyan ma'noda "Muvozanat" romanining mantiqiy davomidir. Chunki bu romanda ham, xuddi "Muvozanat"dagi kabi insonning yaratilishi, olam ichra jo'natilgan yaralmish (inson) qismati, o'zni va Yaratganni anglash jarayonlari yoritiladi. Faqat "Muvozanat"da ijtimoiypsixologik tahlil yetakchilik qilgan bo'lsa, "Isyon va itoat"da ulkan umumbashariy voqelikni metaforik umumlashtirish, poetik modellashtirish usuli ustuvor.

Ulug'bek Hamdam romanlarida obrazlar tizimi va uslub xususiyatlariga to'xtaladigan bo'lsak, yozuvchining romanlarida qahramonlarning ichki kechinmalari, ularning ruhiy holati batafsil yoritiladi. Uning asarlarida xalqona tasvirlar, badiiy tahlil va ramziy ifodalar keng o'rin egallagan. Shuningdek, yozuvchi tarixiy voqealar va zamonaviy muammolarni o'ziga xos tarzda uyg'unlashtirib, ularga yangi badiiy talqin beradi. Uning romanlarida realistik va ramziy tasvir uslubi uyg'unlashgan bo'lib, bu holat asarlarni yanada ta'sirchan qiladi.

Yozuvchining "Yo'l" nomli romani kompozitsiyasi asarning barcha komponentlarini uyushtirib, uning shakliy va mazmuniy butunligini ta'minlashga, o'quvchiga badiiy matn tagidagi serqatlamlilikni anglatishga, g'oyaviy-estetik ta'sir kuchini orttirishga xizmat qilgan. Avvalo, bu yaxlitlik, serqatlamlilik matn qurilishining dastlabki elementi bo'lgan sarlavhalarda o'z aksini topadi. Roman shaklan kichik, mazmunan salmoqli ma'no anglatuvchi sarlavha ostidagi hikoya va suhbatlarni munosib tanlangan badiiy sathda kompozitsion biriktirgan. Asar mohiyatida asl haqiqatga eltuvchi yo'l va undan og'ishmay ildam borish g'oyasi yotadi.

Muallif romanlarining ko'pgina o'rinlarida tush motiviga alohida urg'u beradi. Deyarli barcha romanlari tarkibida ma'lum bir sir-asror tush orqali ayonlashadi. Ulug'bek Hamdamning romanlari o'zbek adabiyotida yangicha falsafiy va badiiy qarashlarni shakllantirdi. Uning asarlari milliy adabiyotga zamonaviy tahlil usullarini olib kirdi va yangi yozuvchilar avlodi uchun ilhom manbai bo'ldi. Ayniqsa, uning uslubi va mavzularining murakkabligi, qahramonlar ruhiy olamining chuqur tahlil etilishi zamonaviy adabiyot rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi.

¹ Ёкубов И. Бадий-эстетик сўз сеҳри. – Тошкент: "ФТМ" нашриёти, 2011. 283-бет.

² Хусанбоева Қ. Буюк муҳаббат кўшиғи. // Тил ва адабиёт таълими, 2009. № 10. – Б.30-54; Қиличев Н. "Сабо ва Самандар" романида ишқ талқини. // Филологик тадқиқотлар тўплами, – Нукус, 2010. – Б.117-120; Йўлдош Қ. Замонавий ўзбек насри ёки эсселашган тафаккур. // Тил ва адабиёт таълими, 2011. – №7-8.

Yozuvchining asarlari o'ziga xos poetik va badiiy til bilan ajralib turadi. Uning romanlarida obrazlilik, metaforik ifodalar va simvolizm keng qo'llaniladi. Hamdam o'z qahramonlarining fikrlash tarzini, ruhiy holatini yuksak badiiylik bilan ochib berish orqali o'quvchini o'ylashga, tahlil qilishga undaydi. Uning badiiy tili faqatgina hikoya qilish vositasi emas, balki roman muhitini yaratishdagi asosiy elementlardan biri hisoblanadi.

Yozuvchi romanlarida realistik, romantik, sentimental, modernistik metodlarning uyg'unlashuvi, "o'tish davri" va undan keyingi davrda xalqimiz boshidan kechirgan muhim voqealarning psixologik jihatdan mukammal tasvirlanishiga zamin hozirlagan. Ayni paytda, romanlardagi biografik elementlar, Sharq va G'arb falsafasining badiiy uyg'unlashtirilishi U.Hamdam ijodining bugun va kelajakdagi ahamiyatini yaqqol ko'rsatadi.

Ulug'bek Hamdam inson botiniy olami, psixologiyasini o'zi yashab ijod qilayotgan davr bilan, davr psixologiyasi bilan uzviylikda talqin etadi. Davrga xos har bir voqea-hodisa, yuksalish-u tanazzul inson faoliyatida, o'y-kechinmalarida u yoki bu tarzda ifoda etadi. Yozuvchi o'z davrining barometridir. O'zining falsafiy, siyosiy fikr-mulohazalarini romanlaridagi qahramonlar tilidan mahorat bilan bayon eta olgan ijodkordir.

Xulosa qilib aytganda, Ulug'bek Hamdamning romannavislikda tutgan o'rni juda muhimdir. U o'z ijodi orqali o'zbek romanchiligiga yangicha yondashuv olib keldi. Uning asarlari faqatgina badiiy qiymatga ega bo'lib qolmay, balki o'zbek jamiyatining madaniy va ma'naviy rivojiga ham katta hissa qo'shmoqda. Uning romanlari orqali milliy adabiyot falsafiy va psixologik jihatdan boyidi. Shu bois, Ulug'bek Hamdam ijodining tahlili va o'rganilishi adabiyotshunoslikda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Yozuvchining romanlaridagi g'oyaviy chuqurlik va badiiy mahorat uning asarlarini adabiyot ixlosmandlari uchun bebaho merosga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. Қиличев Н. "Сабо ва Самандар" романида ишқ талқини // Филологик тадқиқотлар тўплами, – Нукус, 2010.
2. Хусанбоева Қ. Буюк муҳаббат қўшиғи // Тил ва адабиёт таълими, 2009. № 10. – Б.30-54.
3. Йўлдош Қ. Замонавий ўзбек насри ёки эсселашган тафаккур // Тил ва адабиёт таълими, 2011.
4. Ёқубов И. Бадий-эстетик сўз сеҳри. – Тошкент: "ФТМ" нашриёти, 2011.